


2025-yil, 30-noyabr, 20(66)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

HAR BIR DAQIQANI G'ANIMAT BILIB,
IJODKORLIK VA VATANGA MEHR BILAN YASHANG.
FARZANDLARI BILIMLI, ISTE'DODLI, O'ZINING
KUCHI VA SALOHİYATIGA ISHONIB, OLDINGA INTILIB
YASHAYDIGAN XALQ VA DAVLATNING ISTIQBOLI,
ALBATTA, YORUG' BO'LADI!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov, Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov, Abdurahim Nosirov, To'liqin Saydaliyev, Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva, Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev, Salima Jumayeva, Qayum Baymirov, Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov, Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov, Madina Nuriddinova, Barno Kadirova, Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova, Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov, Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova, Gulsanam Xolikulova, Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova, Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova, Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova, Oqila To'raqulova, Mohigul Fozilova, Maxpuzax Karaxodjayeva, Dilfuza Toshniyozova, Gulboxor Emazarova, Komiljon Qarshiyev, Uyg'unjon Turdimurodov, Diyora Yunusova, Ra'no Abdullayeva, Sharif Yarashov, Shaxnoza Xudaykulova, Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva, Surayyo Inomjonova, Nurali Hamidov, Davronova Mahfuza, Dilafuz Jabborova, Begali Mardiyev, Normuhammad Ubaydullayev, Feruza Sharopova, Adiba Ma'diyeva, Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov, Sharipboy Bobojonov.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimaryam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Nasiba SABIROVA.
MILLIY G'OYA VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR 3

Sh.Z.RAHMATULLAYEVA.
YOSHLAR NUTQIDA INTERNET TILINING TA'SIRI VA UNI ME'YORLASHTIRISH MASALALARI 7

Manzar ABDULXAYROV.
NAVOIY ASARLARI MATNIDAGI FONETIK XUSUSIYATLAR TAHLILI..... 10

Nargis KUDRATXODJAYEVA.
HOZIRGI O'ZBEK BADIY ADABIYOTI VA TIL MADANIYATIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI..... 12

TILSHUNOSLIK

Nilufar MUMINOVA.
ANTROPONIMLAR FENOMENI VA ULARNING PRAGMATIK FUNKSIYALARI: TEMURIYLAR DAVRI MISOLIDA 16

Umida IBRAGIMOVA.
GRAMMATIK KATEGORIYALARNING MORFOLOGIK TIZIMDAGI O'RNI 19

Xasan G'AFFOROV.
TIL VA IJTIMOY MAQOMNING ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI LINGVISTIK IFODASI VA GENDER XUSUSIYATLARI..... 21

Manzar ABDULXAYROV,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik
kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
manzarabdulxayrov64@gmail.com



NAVOIY ASARLARI MATNIDAGI FONETIK XUSUSIYATLAR TAHLILI

Annotatsiya: o'zbek matnshunosligida Alisher Navoiy asarlari matnidagi fonetik xususiyatlar, qo'lyozma asarlaridagi so'z va iboralarning shakliy ifodasi, xususan, tovush tarkibidagi o'zgarishlar, fonetik variantlarning yuzaga kelishi oddiy bir holat emas. Bu matnning ichki rivojlanish qonuniyatlari, davr muhiti, tillarning o'zaro ta'siri, yangi-yangi so'z va iboralarning kirib kelishi singari tamoyillarga asoslanadi. Maqolada ana shu masalalar muxtasar shaklda tahlilga tortilgan. Unda matnshunoslikda qo'lyozmalar matnidagi fonetik farq va tafovutlar bilan ishlashning o'rni va ahamiyati ko'rsatiladi, XV asrdagi fonemalar haqida ham qimmatli ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *mumtoz, matn, qo'lyozma, matnshunoslik, fonetika, undosh va unlilar, yozuv.*

Аннотация: в узбекской текстологии фонетические особенности в тексте произведений Алишера Навои, формальное выражение слов и словосочетаний в рукописных произведениях, в частности, изменение звуковой структуры, возникновение фонетических вариантов – не простой случай. В его основе лежат такие принципы, как законы внутреннего развития текста, среды времени, взаимодействия языков, введения новых слов и выражений. Эти вопросы кратко анализируются в статье. Показана роль и значение работы с фонетическими различиями и различиями текста рукописей в текстологии, также проанализированы ценные сведения о фонемах в XV веке.

Ключевые слова: *классика, текст, рукопись, текстология, фонетика, согласные и гласные, запись.*

Annotation: in Uzbek textual criticism, phonetic features in the text of Alisher Navoi's works, the formal expression of words and phrases in handwritten works, in particular, changes in sound structure, the emergence of phonetic variants are not a simple case. It is based on principles such as the laws of internal development of the text, the environment of time, the interaction of languages, and the introduction of new words and expressions. These issues are briefly analyzed in the article. The role and significance of working with phonetic differences and differences in the text of manuscripts in textual criticism is shown, and valuable information about phonemes in the 15th century is also analyzed.

Key words: *classics, text, handwriting, textology, phonetics, consonants and vowels, writing.*

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarida mumtoz yozuvimizdagi undosh va unlilar haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Ularni to'plab, tartibga keltirish natijasida XV asr vokalizm va konsonantizmi – mumtoz yozuvimiz haqida zarur ma'lumotlar olish mumkin. Ayni ma'noda, avvalo, Navoiyning tovushlar tizimi haqidagi o'z qarashlariga e'tibor qaratsak.

Masalan, shoir **a** unlisining sifat xususiyatlari haqida quyidagilarni bayon etadi. "... Ul jumladin biri, Alif (l) bila ho (o) orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz bila qofiya qilsa bo'lur. Andoqki, "yado" (ادي) lafazin "sado" (ص) l) bila qofiya qilsa bo'lur, "boda" (هداب) bila ham qofiya qilsa bo'lur"[1:19].

Shoir ushbu misol yordamida eski o'zbek tilida ikkita **a** unlisi, biri alif (l) belgisi orqali ifodalanuvchi me'yoriy cho'ziqlikka ega **a** tovushini, ikkinchisi hoyi havvaz (o) orqali ifodalanuvchi, ma'no ajratish xususiyatiga ega bo'lmagan qisqa **a** unlisi mavjudligini ma'lum qilmoqda. Va nihoyat, shoir asarlarida uchrochi, jumladan, Alisher Navoiyning Tehrondagi saltanat kutubxonasida saqlanayotgan shoir dastxatidagi so'z boshida keluvchi alifi mamduda (i) – cho'ziq **a** bilan yozilgan: **almishtur, atsa, ag'uluq** so'zlarini hisobga olsak, XV asrda uch xil **a** unlisi mavjud bo'lganligi ma'lum bo'ladi"[2:36-43].

Navoiy lablangan unli haqida so'z yuritar ekan, XV asr eski o'zbek adabiy tilida to'rtta mustaqil fonema bo'lganligini ta'kidlab, quyidagi misollarni keltiradi:

"...to'r (روت) ki domdur, yana to'r (روت) ki andin daqiq (ingichka)roqdurki: qush o'turur yig'ochdur va to'r (روت) ki, andin daqiqroqdur: uyning to'ridur va to'r (روت) ki, barchadin ariqdur: to'riug'ni yo eshikni to'rmak uydur[1:19].

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, Navoiy eski o'zbek tilida bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanuvchi to'rt mustaqil fonema borligini ta'kidlamogda. Ulardan birinchisi oddiy cho'ziqlikka ega o' (روت – dom), ikkinchisi (روت – qush o'tiradigan yog'och) birinchisidan qisqaroq bo'lganligi uchun birinchi darajali qisqa u^{1*}, uchinchisi (روت – uyning to'ri) ikkinchisidan qisqaroq bo'lgani uchun ikkinchi darajali qisqa u; to'rtinchisi [1:19] (روت – to'rig', eshikning to'ri) uchinchisidan qisqaroq bo'lgani uchun uchinchi darajali qisqa u.

Shoir XV asrdagi i unilari haqida ham qimmatli ma'lumotlar qoldirgan: "Va **yoyiy** misol uch harakatdan ortiq topilmas: ter (ريت) ki, termak ma'nisi biladir. **Ter** (ريت) ki, andin daqiqdur, uldurki, sortlar oni "araq" va "xuy" derlar. **Ter** (ريت) ki, boridin ariqdur, o'q ma'nosi biladur"[1:19]. Bu misollar XV asr eski o'zbek tilida bir-biridan uzun-qisqalikda farq qilib, ma'no ajaratish xususiyatiga ega uchta i unlisi bo'lganligini ko'rsatadi. Bulardan birinchi so'zdagi i unlisini biz i^e deb oldik, ikkinchi so'zda oddiy cho'ziqlikdagi i, uchinchisida cho'ziq i fonemasi aks etgan. Agar bu ma'lumotlarga shoir asarlaridagi **q**, **g'** undoshlari yonida keladigan qisqa i unlisini qo'shsak (qыз, g'ы) XV asrda to'rtta i tovushi borligini bilish mumkin. Bu esa, shoirning "...va turkiy alfozda bu ma'ruf majhul harakat to'rt nav' topilur: ham **voviysi** ham **yoyiysi**" fikrini to'la tasdiqlaydi[1:19]. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu to'rtta i dan uchta fonema hisoblanadi, chunki yuqoridagi misollardan ko'rinishicha, ular ma'no ajratish xususiyatiga ega. Qolgan bittasi (qisqa i) bu xususiyatdan mustasno. Bu unililar yoniga o'sha davr

tilida mavjud bo'lgan o'rta keng e unlisini qo'shsak, XV asrda quyidagi unli tovushlar bo'lganligini ko'ramiz: 1) maddali alif – cho'ziq ä; 2) oddiy cho'ziqlikka ega a; 3) hoyi havvaz orqali ifodalangan qisqa a; 4) oddiy cho'ziqlikdagi o'; 5) birinchi darajali qisqa u; 6) ikkinchi darajali qisqa u; 7) uchinchi darajali qisqa u; 8) oddiy cho'ziqlikka ega i; 9) qisqa i; 10) uzun i; 11) i^e unlisi; 12) e unlisi.

Demak, Navoiy asarlari tilida, ya'ni XV asr eski o'zbek tilida 12 ta unli tovush bo'lgan. Ulardan to'qqiztasi fonema xususiyatiga ega (a, o', u – birinchi darajali qisqa, u – ikkinchi darajali qisqa, u – uchinchi darajali qisqa i, i^e, i; e) qolgan uchta (cho'ziq ä, qisqa a va i) bu xususiyatdan mustasno. Bundan tashqari, yozuv yodgorliklar tilidagi unli tovushlarning imlosi, ayniqsa, alif (ا), vov (و), yo (ي) harflarining imlosi va vazifalarini ayrim turkiyshunos olimlar o'z ilmiy maqolalarida birma-bir batafsil tahlil qilib o'tishgan [3:19-24]. Ammo keyingi tadqiqotlar mumtoz o'zbek tilida 12 ta emas 10 ta unli borligini tasdiqlaydi[5:28]. Ular bir-biridan uzun- qisqalik bilan farq qilgan: a: - a, i: -i, u: -u, o': -o', e: -e [6:30]. Undoshlar esa 31 ta bo'lganligini ko'rsatadi [6:30].

Qo'lyozma asarlardagi so'z va iboralarning shakliy ifodasi, xususan, tovush tarkibidagi o'zgarishlar, fonetik variantlarning yuzaga kelishi oddiy bir holat emas. Bu matnning ichki rivojlanish qonuniyatlari, davr muhiti, tillarning o'zaro ta'siri, yangi-yangi so'z va iboralarning kirib kelishi, fan va texnikaning taraqqiyoti singari tamoyillarga asoslanadi. Demak, ularni tabdil qilish jarayonida bu fonetik holatlarni chuqur o'rganish joiz bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tabdilda fonetik variantdosh so'z va iboralarni tahlil etishda eski o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilinishini ta'minlash uchun matnshunoslik, o'zbek tili tarixi, shuningdek, adabiyotimizning ayrim mumtoz namoyandalari asarlarining asliyatdagi til xususiyatlari va oldingi asrlarda yaratilgan lug'atlar e'tiborga olinishi lozim.

¹ Алишер Навоий асарларига бағишлаб тузилган "Бадоеъ ул-луғат" маълумотларига асосланиб иккинчи, учинчи ва тўртинчи фонемалар – у қилиб олинди.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan, 2000. 19-bet.
2. Shukurov Sh. Eski o'zbek yozuvi imlosi//O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1990. -№ 4. 36-43-b.
3. Shukurov Sh. Alif va uning vazifalari//O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1990. -№ 5. 19-24-b.
4. Umarov E. Dolgota – kratkost glasnykh v starouzbekskom yazyke. – T., 2009. – S.28.
5. Umarov E. Alisher Navoiy unli va undoshlar haqida. – T., 2017. 30-bet.
6. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan, 1992. 306-bet.